

HARAKATLAR STRATEGIYASI VA TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA FUQAROLIK JAMIYATI NAZORATINING TAKOMILLASHTIRILISHI

Abdujabborova Saodat Bozorboyevna

Samarqand shahar 81-maktab tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Tezisdan mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, qabul qilingan Harakatlar strategiyasi va uning bevosita davomi sifatida qaralayotgan Taraqqiyot strategiyasidagi asosiy ustuvor yo'nalishlar aks etgan. Shuningdek bu dasturlarda fuqarolik jamiyati nazoratini rivojlantirishga qaratilgan fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, fuqarolik jamiyati, demokratiya, Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans.

Mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini takomillashtirishga xizmat qiladigan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" nazorat faoliyatini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. 2017-yil 7-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi ishlab chiqildi. Harakatlar strategiyasida mamlakatni yanada rivojlantirish bo'yicha besh ustuvor yo'nalish keltirilgan:

1. Davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish (moviy havorang-osmon va toza suv ramzi, Amir Temur davlati bayrog'ining ramzi)
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish (siyohrang- qonun ustuvorligi va or-nomuslilik ramzi)
3. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish (tillarang- iqtisodiyotni rivojlantirish elementlari hisoblangan kuch-qudrat va boylik ramzi)

4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish (qizil rang-hayot va aholining munosib turmush tarzini ta'minlash ramzi)

5. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat (oq rang-tinchliksevarlik siyosati elementlari hisoblangan tinchlik va soflik ramzi)¹.

O'zbekiston xalqining hayotini baxtli qilishga qaratilgan Harakatlar strategiyasi o'z maqsadlariga erishishi ham nazorat faoliyatiga bog'liq. Baxtli hayot adolatli ijtimoiy tartibga, tartibning o'rnatilishi esa nazorat tizimiga, bunday nazoratning shakllanishi esa demokratiyaga bog'liq. Adolatli ijtimoiy tartib baxtli hayotni ta'minlaydigan jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Ijtimoiy tartibni o'rnatish muammosi insoniyat tarixidagi eng murakkab va eng dolzarb muammo bo'lib kelmoqda. Fuqarolik jamiyatining asosiy funksiyasi davlat ustidan nazoratni amalga oshirishdan iborat va uning nazorati mamlakatimizda shakllanayotgan nazorat tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov davlat nazorati funksiyalariga nisbatan jamoatchilik nazoratining afzal va muhim ekanligiga to'xtalib, jumladan, quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Shuni unitmaylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug'ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko'paytirsak, amaldorlarning zo'ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan hamjamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo'l yo'q".²

Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalalari 2010-yil 12-noyabrda Islom Karimov tomonidan e'lon qilingan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi"da ham o'z ifodasini topgan edi. Ushbu

¹ Mirziyoyev Sh.M Harakatlar Strategiyasi. 2017-yil 7-fevral

² Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11.- Toshkent:O'zbekiston,2003.28-29-bet

konsepsiya asosida demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida ma'lum bir ishlar amalga oshirildi. Ammo konsepsiyada belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish ko'ngildagidek bo'lmadi. Boshqacha qilib aytganda, modernizatsiyalash konsepsiyasini amalga oshirishga qaratilgan harakatlar zamon talabiga javob bermadi. Shuning uchun nazariyadan amaliyotga o'tish maqsadida Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Harakatlar strategiyasi nominal demokratiyani real demokratiyaga yoki demokratiyaning shakliga munosib mazmunini yaratishga qaratilgan. Harakatlar strategiyasi o'z mazmun mohiyatiga ko'ra mamlakatni modernizatsiyalash konsepsiyasini faqat davom ettirish emas, balki uni takomillashtirish va reallikka aylantirishga qaratilgan harakat ham hisoblanadi³.

Bugun mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida mehnatsevar xalqimiz hayotida ulkan sifat o'zgarishlari yuz bermoqda. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan "2017 - 2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning qabul qilinishi mamlakatimizda tub demokratik islohotlar, transformatsion o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan uch yuzga yaqin qonun va to'rt mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.⁴

Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan islohotlar deyarli barcha sohalarni qamrab oldi. Eng asosiysi, mamlakatda insonning huquq va erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilish, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, davlat organlarining jamiyat oldida hisobdorligini ta'minlash islohotlarning bosh maqsadi etib belgilangandi. Ayniqsa, xalq bilan muloqot qilish, majburiy mehnat va bolalar mehnatini bartaraf etish borasida qilingan ishlar, fuqarolarga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan Davlat xizmatlari agentligi faoliyati, valyuta

³ Nabiyev F.X. Ijtimoiy nazorat. Samarqand. SamDU nashri. 132-bet

⁴ Mirziyoyev Sh.M. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risa" gi farmoni. 2022-y 28-yanvar

bozorining liberallashtirilishi, propiska tizimini bekor qilinishi va fuqarolikni berish tartibi isloh qilingani, tashqi siyosatda salmoqli yutuqlarga erishilganligi e'tiborga loyiq. Bundan tashqari fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlar va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keying yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish maqsadida keng jamoatchilik muhokamasi natijasida "Harakatlar strategiyasidan-Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi. 2021-yilning sentabr oyida Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekistonning yaqin besh yildagi taraqqiyot strategiyasidan ko'zlangan maqsadlar, belgilangan vazifalarni amalga oshirish tamoyillarini jamlagan «Yangi O'zbekiston strategiyasi» nomli kitobi chop etildi. Unda Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni qurish bo'yicha qilinayotgan ishlar va milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritiladi. Ushbu asar «Yangi O'zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g'oyaviy-ma'naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko'lamlil islohotlarimizning yaqqol ifodasidir»⁵, - so'zlari bilan boshlanadi.

"Harakatlar strategiyasi"ning mantiqiy davomi sifatida nashr etilgan ushbu kitob konseptual ahamiyatga ega bo'lib, unda mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar aniq bayon etib berildi. Mazkur kitob o'quvchilarda Yangi O'zbekistonning zamonaviy demokratik qiyofasi

⁵ Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" Toshkent: O'zbekiston. 2021. 11-bet

qanday yaratilayotgani, mamlakatni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarish uchun belgilab olingan strategik yo'l to'g'risida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradi

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakatimizni rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi va 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan barcha yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu qatorda belgilangan ijtimoiy sheriklik ham fuqarolik jamiyatini yanada kuchli qilishda o'z o'rniga egadir. Jamiyat taraqqiyoti tartibga, tartib esa nazoratga bog'liq, ijtimoiy sheriklik va hamkorlik aynan ana shu nazorat borasida bo'lishi va nazorat tizimini takomillashtirishga qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11.-Toshkent:O'zbekiston,2003.
2. Mirziyoyev Sh.M Harakatlar Strategiyasi. 2017-yil 7-fevral
3. Mirziyoyev Sh.M. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risa" gi farmoni. 2022-y 28-yanvar
4. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" Toshkent: O'zbekiston. 2021
5. Nabiyev F.X. Ijtimoiy nazorat. Samarqand. SamDU nashri.